

O‘zbekistonda qashshoqlikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashning iqtisodiy siyosati

Karimov Ulug‘bek Mirzajon o‘g‘li

TDIU magistranti

Hozirgi davrda kambag‘allik va qashshoqlik -bu murakkab, ko‘p qirrali va "tasviriy" global muammo hisoblanadi. Bevosita kambag‘allik va qashshoqlik terminlari o‘zaro farqlanishiga keladigan bo‘lsak, hozirda jahon bo‘ylab kambag‘allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumiy qabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta’rif ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o‘zi uchun belgilangan kambag‘allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi.

Qashshoqlik –insonning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to‘yib ovqatlanmaslik, sog‘liqni saqlash, ta’lim yoki boshqa asosiy xizmatlaridan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yo‘qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashga nisbatan aytiladi. Kambag‘allik esa insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi, jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish uchun to‘siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta’lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta’minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, kambag‘allik –bu insonlar, uy xo‘jaliklari va jamoalarining ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi. O‘zbekistonda ilk bor kambag‘allik masalasi 2020-yilning 24-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida ko‘tarilib, mazkur mavzu ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibiga olib chiqildi. Bu borada, Davlatimiz rahbari shunday o‘ziga xos yondashuvni ilgari surdiki, unga ko‘ra “Kambag‘allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko‘paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o‘qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg‘otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o‘qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to‘lash tizimini joriy qilish kerak”(Mirziyoyev, 2020). Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘rsatmalari va tashabbusiga binoan, kambag‘allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubi, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va me‘yoriy asoslarini puxta ishlab chiqish maqsadida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi esa aynan ushbu vazifalarni ijrosini tizimli ta’minlashda amaliy qadamgina bo‘lib qolmasdan, yurtimizda kambag‘allikni qisqartirish borasida tarixiy institutsional islohotlar amalga oshirilayotganining yorqin ifodasidir. ¹

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi deb qayta tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish maqsadida hududiy boshqarmalar va tasarrufidagi tashkilotlar shu jumladan, Kambag‘allikni qisqartirish va mehnat masalalari ilmiy tadqiqot

¹ Jumanova R.F. (2008) “Aholi turmush darajasi. ko‘rsatkichlari va uni oshirish yo‘llari”/7 Iqtisod fanlari nomzodi olish uchun diss. avtoreferati. –T. -11 b.

instituti, Bandlikka ko'maklashish markazi, Oila va xotin-qizlar instituti, Tashqi mehnat migratsiya agentligi, "Ishga marhamat" monomarkazlari, Kasb-hunarga o'qitish markazlari, Mahallabay ishlash va Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Kambag'allik kamaytirishda dunyo bo'yicha Xitoy tajribasi namuna sifatida olindi.

Qashshoqlikni bartaraf etishga qaratilgan siyosiy yondashuvlar jamiyat va davlatda qashshoqlikning sabablari qandaytushunilishi bilan bevosita bog'liqdir. Qashshoqlik muammolari turli ilmiy nazariyalar va mafkuraviy oqimlar doirasida turlicha izohlanadi. Ba'zi tadqiqotchilar qashshoqlikning kelib chiqishini, birinchi navbatda, kambag'allarning o'ziga xos quyidagi hatti-harakatlari bilan moyillikni bildiradi:

- Hayot yo'nalishi, maqsadlari va turmush tarzini noto'g'ri individual tanlash;
- Kambag'al oiladan kelib chiqish; (alohida noto'g'ri tanlangan maqsad, va turmush tarzi bilan izohlanadi);
- Kasbiy bilimlarni yetarli emasligi;
- Kasbga mos keladigan ish o'rinlarini mavjud emasligi;
- Boshlang'ich kapitalning yetarli emasligi;
- Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi qiyinchiliklar.

O'zbekistonda mehnat bozori siyosati va mehnatga haq to'lash siyosatini takomillashtirishsiz bugungi kunda kambag'allik muammosini samarali hal etib bo'lmaydi. Aholiga manzilli ijtimoiy yordam dasturlarini ishlab chiqish zarurligini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi sharoitda ushbu dasturlar ko'p jihatdan mehnatga layoqatli aholining aksariyat qismidagi yuqori darajadagi kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan. Agar davlat tomonidan belgilangan siyosati aholi bandligini oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va mavjudlarini saqlab qolishning tashkiliy-moliyaviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, kambag'allik darajasini real pasaytirishga erishiladi.

Mehnatga layoqatli aholining mustaqil ravishda qashshoqlikdan chiqishi uchun sharoit yaratish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- > Ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirish va ish beruvchilar o'rtasidagi raqobatga asoslangan mehnat bozorini shakllantirish;
- > Barcha mamlakatlarda mavjud bo'lgan va ish tajribasi yoki ta'lim turi bilan izohlab bo'lmaydigan erkaklar va ayollarning ish haqi o'rtasidagi farq, ya'ni iqtisodiyotni tashqi savdo va investitsiyalar uchun ochish, bu gender farqini kamaytirishga yordam beradi;
- > Kasb-hunar ta'limi tizimini modernizatsiya qilish va talabni tashkil etish shartlarini chuqur o'rganishni yaratish;
- > Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda tarmoqlar va hududiy talablardan kelib chiqqan holda qabul kvotalarini shakllantirish;
- > Hududiy bandlikka ko'maklashish markazlari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari negizida o'quv va malaka oshirish majmualarini tashkil etish;
- > Kasb-hunarga o'qitish markazlarini tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlarini faol jalb etish;

> Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan har bir hududda ishsiz fuqarolarga kasbiy bilim va ko'nikmalarni, zaruratga qarab chet tillarini o'rgatish bo'yicha monomarkazlar va kasb-hunarga o'qitish markazlari tashkil etilishi;

> Biznes markazlari bilan birgalikda ishsiz fuqarolar va mehnatga layoqatli ishsizlarni tadbirkorlik asoslariga o'rgatish;

> Oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha mablag'larning 70% aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ish o'rinlari yaratishga qaratilgan kichik va o'rta biznes loyihalariga yo'naltirish;

> Kam ta'minlangan aholi bandligini ta'minlovchi korxonalariga bank kreditlari berish;

> Barcha savollarga javob beradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlar uchun tushunarli bo'lgan interaktiv mobil ilovalar, "biznes navigatorlar"ni yaratish;

> Savdo-ko'ngilochar markazlar sonini ko'paytirish va ko'chma savdoni rivojlantirish, bu boradagi ortiqcha cheklovlarni olib tashlash;

> yuqori daromad keltiradigan faoliyat turlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini shakllantirish;

> Ish beruvchilar tomonidan yosh mutaxassislarni tayyorlash uchun to'lovlar ya'ni hududiy va tarmoq sohalarida shartnomalariga ish beruvchilar tomonidan yosh mutaxassislarning oliy va o'rta maxsus ta'lim olganliklari uchun haq to'lash shartlari va yosh mutaxassislarning ta'lim olish uchun moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ishlash shartlarini kiritish;

> Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashni uzoq muddatli prognozlash va dasturlash, ularni davlat va boshqa tashkilotlar buyurtmalari asosida taqsimlash amaliyotini joriy etish;

> Uy-joy, ta'lim va sog'liqni saqlash muammolarini mustaqil hal qilmoqchi bo'lgan aholi uchun shart-sharoitlar yaratish: ish beruvchilar tomonidan uy-joy sotib olishda yosh mutaxassislarga yordam berish.

> Yosh mutaxassislarning oilalariga ipoteka kredit dasturlari bo'yicha uy-joy sotib olishda manzilli yordam ko'rsatish, ularga uy-joy sotib olishda ko'maklashuvchi tashkilotlarda yosh mutaxassislarning mehnat sharoitlari to'g'risida huquqiy va tarmoq shartnomalariga kiritish zarur.²

Xulosa qilib aytganda, qashshoqlikning oldini olishda mavjud muammolarni samarali hal etish, aholining kam ta'minlangan qatlamlari daromadlarini oshirish, tadbirkorlik yoki boshqa mehnat faoliyatiga jalb etishda faol ishtirok etayotgan mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini rag'batlantirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

² Beglova E.I., "Mehnatkash odamlarning qashshoqligini bartaraf etish konsepsiyasi" 2021

1. Beglova E.I., "Mehnatkash odamlarning qashshoqligini bartaraf etish konseptsiyasi" 2021
2. Jumanova R.F. (2008) "Aholi turmush darajasi. ko'rsatkichlari va uni oshirish yo'llari"/7 Iqtisod fanlari nomzodi olish uchun diss. avtoreferati. –T. -11 b.
3. Maxalina O.M.,(2022)"Ijtimoiy davlat har doim odamlarga yordam ko'rsatish uchun javobgardir. Zamonaviy ijtimoiy davlatda fuqarolarga kambag'allik va qashshoqlikdan chiqish imkoniyatlari va qutulish yo'llarini ta'minlash kerak va bu ijtimoiy norma hisoblanadi ". -56-66.
4. Melikyan G.G., Kolosova R.P. (2014) Ekonomika truda i sosialno-trudovie otnosheniya. –Moskva, –S.300.
5. Muxitdinova M.Z. (2023) "Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishning iqtisodiy mexanizmi" mavzusida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgandissertatsiya. –Toshkent, 21-31 betlar.
6. Xashimov P.Z. (2021) "O'zbekistonda aholi migratsiyasining xususiyatlari" Iqtisod va moliya jurnali, 10(57)Chabanyuk O.V. (2022